

ISSN:3060-4567 Modern education and development
QIMMATLI QOG'ÖZLAR BOZORINING FAOLIYAT
KO'RSATISH MEXANIZMLARI ORQALI KAPITAL BOZORINI
RIVOJLANTIRISH VA INVESTORLARNI JALB QILISH

Farziddinov Akmaljon A'zamjonovich

Farg'ona davlat universiteti,

Iqtisodiyot yo'nalishi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada qimmatli qog'ozlar bozori kapital bozorining muhim tarkibiy qismi sifatida tahlil qilingan. Qimmatli qog'ozlar bozorining infratuzilmasini rivojlanirish va uning faoliyat ko'rsatish mexanizmlari orqali iqtisodiyotga investitsiyalarni jalg qilish, investorlar uchun xavfsizlik va shaffoflikni ta'minlash masalalari ko'rib chiqilgan. Maqolada zamonaviy texnologiyalarning, xususan, raqamlar platformalar va blokcheyn texnologiyalarining qimmatli qog'ozlar bozori rivojlanishidagi o'rni, shuningdek, investorlarni jalg qilish uchun davlat tomonidan ko'rsatiladigan soliq imtiyozlari va ta'lim dasturlarining ahamiyati muhokama qilinadi. Tadqiqot natijalari kapital bozorini rivojlanirishda davlat va xususiy sektor hamkorligining muhim ekanligini ko'rsatadi va qimmatli qog'ozlar bozorining iqtisodiy o'sishga ta'sirini yoritadi.*

Kalit so'zlar: *Qimmatli qog'ozlar bozori, kapital bozori, moliyaviy infratuzilma, raqamlar texnologiyalar, blokcheyn texnologiyasi, xorijiy investitsiyalar, soliq imtiyozlari, xavfsizlik va shaffoflik*

Annotation: *This article analyzes the securities market as a vital component of the capital market. It discusses the development of the securities market infrastructure and the mechanisms that attract investments into the economy while ensuring security and transparency for investors. The role of modern technologies, particularly digital platforms and blockchain technology, in the development of the securities market is examined, along with the significance of government-provided tax incentives and educational programs to attract investors. The research findings emphasize the importance of public-*

Keywords: Securities market, capital market, financial infrastructure, digital technologies, blockchain technology, foreign investments, tax incentives, security and transparency

Kirish

Qimmatli qog‘ozlar bozori iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda, kapital jalg qilishda va iqtisodiyotga investitsiya oqimini ko‘paytirishda muhim rol o‘ynaydi. Kapital bozorining samarali faoliyat ko‘rsatishi investorlarga, korxonalarga va davlatga qo‘sishimcha mablag‘larni jalg qilish imkonini yaratadi. Shuningdek, qimmatli qog‘ozlar bozorining rivojlanishi davlat iqtisodiyoti uchun ham barqaror o‘sish omili hisoblanadi. Bu bozorning samarali faoliyat yuritishi va rivojlanishi uchun davlat tomonidan qator qonunchilik va huquqiy normalar ishlab chiqilgan. Jumladan, “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi Qonun va “Kapital bozorini rivojlantirish strategiyasi” asosiy hujjatlar sifatida o‘z o‘rniga ega. Ushbu qonunlar qimmatli qog‘ozlar muomalasi, emitent va investorlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi, shuningdek, qimmatli qog‘ozlar bozorining shaffofligi va xavfsizligini ta’minlashni nazarda tutadi. Ushbu maqolada qimmatli qog‘ozlar bozorining asosiy faoliyat ko‘rsatish mexanizmlari, infratuzilmasi, investorlarni jalg qilish yo‘llari va kapital bozorini rivojlantirish bo‘yicha muhim chora-tadbirlar tahlil qilinadi.

Asosiy qism

Qimmatli qog‘ozlar bozorining infratuzilmasi

Kapital bozorining infratuzilmasini rivojlantirishda qimmatli qog‘ozlar savdo maydonchalari va tegishli infratuzilmalar muhim rol o‘ynaydi. Bozor birlamchi va ikkilamchi savdo bozorlariga bo‘linadi. Birlamchi bozorda korporatsiyalar o‘z qimmatli qog‘ozlarini birinchi bor chiqaradi va ulardan yig‘ilgan mablag‘ korxonaning o‘sish va rivojlanishiga sarflanadi. Ikkinchi

daraiali bozor esa qimmatli qog‘ozlarning qayta sotilishi uchun imkoniyat yaratadi, bu esa investorlar uchun likvidlikni ta’minlaydi.

Kapital bozorining infratuzilmasini mustahkamlash uchun depozitariylar va kliring tizimlari joriy etiladi. Depozitariylar qimmatli qog‘ozlar saqlanishini ta’minlaydi va investorlarning mulkiy huquqlarini himoya qiladi. Kliring tizimlari esa savdo jarayonlarini tezkor va xavfsiz bajarilishini ta’minlaydi, tranzaktsiyalarni hisob-kitob qilish va turli ma’lumotlarni qayd etishni avtomatlashtirish orqali xatolarni kamaytiradi.

Savdo mexanizmlari va zamonaviy texnologiyalar

Qimmatli qog‘ozlar bozorida savdo jarayonlarini optimallashtirish uchun raqamli texnologiyalar va innovatsion yechimlar keng joriy qilinmoqda. Birjalarning onlayn platformalari va brokerlik xizmatlari investorlar uchun qimmatli qog‘ozlar savdosini qulay, tezkor va arzon qiladi. Ayniqsa, blokcheyn va fintech texnologiyalari bozorni raqamlashtirishda katta rol o‘ynaydi. Blokcheyn texnologiyalari investorlarning tranzaktsiyalarini xavfsiz amalga oshirishga, tranzaktsiyalar tarixini avtomatlashtirishga yordam beradi.

Xavfsizlik va shaffoflikni ta’minlash

Investorlarni jalb qilishda qimmatli qog‘ozlar bozorining xavfsizligi va shaffofligi alohida ahamiyatga ega. Kompaniyalar o‘z faoliyatini oshkora qilib, moliyaviy hisobotlarni muntazam ravishda taqdim etishi investorlarning ishonchini oshiradi. Bundan tashqari, bozorni tartibga soluvchi davlat organlari, masalan, qimmatli qog‘ozlar komissiyalari va moliyaviy nazorat organlari orqali qimmatli qog‘ozlar bilan bog‘liq har qanday jinoyatlar oldini olish choralar ko‘riladi. Investorlarni aldash, noqonuniy amaliyotlar va ichki ma’lumotlarga asoslangan savdolar qattiq nazorat qilinadi.

Investorlarni jalb qilish va ularga qulay sharoit yaratish

Investorlarni kapital bozoriga jalb qilishning asosiy usullaridan biri soliqlar bo‘yicha imtiyozlar taqdim etishdir. Uzoq muddatli investitsiyalar uchun soliqlarni kamaytirish yoki boshqa rag‘batlantiruvchi chora-tadbirlar qo‘llash investorlarni jalb qilishda muhimdir. Shuningdek, yangi investorlar uchun ta’lim

va trening dasturlari ham tashkil etilishi kerak. Bu dasturlar investorlarni kapital bozorining qanday ishlashi va uning imkoniyatlari haqida xabardor qiladi.

Investorlarning xatarlarini kamaytirish maqsadida qimmatli qog‘ozlar bozorida diversifikatsiya imkoniyatlari kengaytirilmoqda. Investitsiyalarni bir nechta vositalar — aksiyalar, obligatsiyalar, derivativlar va boshqa qimmatli qog‘ozlarga bo‘lib joylashtirish orqali xatarlar kamaytiriladi. Bu turli yo‘nalishdagi investitsiyalar orasidagi farqlar bozor xatarlarini samarali boshqarishda yordam beradi.

Xorijiy investitsiyalarni jalg qilish

Kapital bozorini rivojlantirish uchun xorijiy investitsiyalarni jalg qilish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xorijiy investorlarni jalg qilish uchun mahalliy qimmatli qog‘ozlar bozori xalqaro standartlarga moslashtirilishi kerak. Mahalliy bozorda xalqaro sertifikatlash va tasdiqlash tartib-qoidalari joriy etilib, xorijiy investorlar uchun qulay sharoitlar yaratish ularning bozorga bo‘lgan ishonchini oshiradi. Bundan tashqari, xorijiy investitsiyalarni himoya qilish bo‘yicha davlat tomonidan kafolatlar berilishi ham muhimdir.

Tahlil qismi

Kapital bozorini rivojlantirish va investorlarni jalg qilish jarayonida bir qator muammolar mavjud. Raqamli savodxonlik darajasining pastligi, kiberxavfsizlik bilan bog‘liq tahdidlar, moliyaviy infratuzilmaning yetishmovchiligi va boshqa omillar bu yo‘lda to‘siq bo‘lmoqda. Ko‘plab rivojlanayotgan davlatlarda qimmatli qog‘ozlar bozorining rivojlanishi infratuzilma va yuridik bazaning yetishmasligi sababli sekin kechmoqda. Biroq rivojlanishning xalqaro tajribalari asosida davlat va xususiy sektor o‘rtasida hamkorlik qilish orqali bu muammolarni bartaraf etish mumkin.

Xulosa

Qimmatli qog‘ozlar bozorining faoliyat ko‘rsatish mexanizmlarini takomillashtirish va kapital bozorini rivojlantirish iqtisodiyotga investitsiyalarni jalg qilishda katta imkoniyatlar yaratadi. Bozorni rivojlantirish uchun zamonaviy infratuzilmani mustahkamlash, investorlarga qulay sharoit yaratish, soliqlar bo‘yicha imtiyozlar va raqamli texnologiyalarni joriy qilish kerak. Xavfsizlik,

shaffoflik, va yuridik kafolatlarning mavjudligi investorlarni bozorga jalb qilishda muhim omil hisoblanadi. Davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, soliq imtiyozlari orqali xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va mahalliy qimmatli qog‘ozlar bozorini xalqaro standartlarga moslashtirish orqali iqtisodiy barqarorlik va o‘sish ta’minlanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining "Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida." qonuni. <https://lex.uz/docs/-2662539>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kapital bozorini rivojlantirishning qo’shimcha chora-tadbirlari” to’g‘risidagi qarori, 02.09.2023 yil PQ-291-son. <https://lex.uz/uz/docs/-6590025>
3. Alikulov A. T. “O‘zbekistonda capital bozori rivojlanishining istiqbollari” “Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences” jurnali 2022 yil 6-nashr, 2-bo’lim
4. Mishkin, F. S., & Eakins, S. G. Financial Markets and Institutions. Pearson Education 2012
5. Fabozzi, F. J. Bond Markets, Analysis, and Strategies. Pearson Education, 2017.
6. "O‘zbekiston kapital bozorining rivojlanish strategiyasi." Jahon Banki hisobotlari, Toshkent, 2021.